

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazildi

// 18 January 2023 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/14-yanvar-vatan-himoyachilari-kuni-munosabati-bilan-zakovat-intellektual-oyini-otkazildi>



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zakovat” intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-ma‘rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 20-yanvardagi PQ-96-son qarori ijrosini ta‘minlash, 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bayramini munosib o‘tkazish, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda xodimlarning faol ishtirokini ta‘minlash, yuksak ma‘naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan, kuchli bilimga ega bo‘lgan xodimlarni qo‘llab-quvvatlash va ularga o‘z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish maqsadida “O‘zkimyosanoat” AJda “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ markaziy apparati xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan turnirga tashrif buyurgan “Zakovat” klubi a‘zosi, mavsum chempionlaridan biri Temur Mirzayev Jamiyatda “Zakovat” intellektual o‘yini hamda ilm-fanga e‘tibor yuqori ekanligini alohida ta‘kidladi. Mazkur turnir uchun maxsus savollar ham aynan “Zakovat” klubi bilimdoni tomonidan tayyorlandi.

Qiziqarli va murossasiz kechgan bellashuv 2 turdan iborat bo'ldi hamda jami 9 ta jamoa ishtirok etdi.

Yakunda Yig'ma axborot-tahlil departamentining **"Nazoratchilar" jamoasi g'olib bo'ldi va faxrli 1-o'rinni egalladi**. Texnik jihatdan tartibga solish va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish departamentining **"Platinum" jamoasi 2-o'rinni qo'lga kiritdi**. Investitsiya faoliyatini istiqbolli rivojlantirish departamentining **"Erudit" jamoasi esa 3-o'rin sohibi bo'ldi**.











"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati